

Сўфий - табиб шайх Нурсафардий

**Тил ва Дил ёхуд...
ғийбат санъати кимга
керак?...**

"Чўп"ни ўзига қурол қилганлар, унутмасинларки "чўп"нинг икки учи борлигини.

Агар инсон руҳиятига назар ташлайдиган бўлсак, унда ҳам худди вужудда бўлгани каби нафсининг бир неча турларини кўраемиз. Руҳият бу инсонни маълум йўлга бошқарувчи асосий кучдир. Ҳамма гап унинг қандай шаклланишида ва қайси йўлни танлаганидадир. Илоҳий йўл тафаккур ва кўнгил поклиги ила танланса, дунёвий йўлнинг тафаккурдан ташқари нафсий хуружлари ҳам мавжудки, у инсонни ҳаминиша фикран чалғитиб туради. Нафс бу инсоннинг вужудига, руҳан соғлигига салбий таъсир ўтказувчи кучли воситадир. Нафс замирида ҳам руҳан ва ҳам вужуддан касалликлар тури мавжудки, уни ўз вақтида даволамаса, бундай хуружлар инсонни ҳар томонлама хароб этиши мумкин. Шунини алоҳида таъкидлашни лозим топдимки, инсонда физиологик касалликдан кўра, руҳий касалликлар тури нафақат инсоннинг ўзи, балки унинг атрофидаги одамлар учун ҳам ўта ҳавфлидир. Ана шундай касалликларнинг бири, ниҳоятда ачинарли бўлса ҳам айтишга мажбурмизки, бу ўзликимизга теккан ғийбат синдроми касаллигидир. Агар биз тарихимизга назар ташлайдиган бўлсак, мозийда ўтган аждодларимизнинг нақадар меҳр - оқибатли, оқил ва донишманд бўлганини гувоҳи бўламиз. Улар ҳақида тўлқинланиб гапирамиз ва фахр ифтихор туйғусини сезамиз. Кейинги аср даври биз учун анчагина илмсизлик ва тафаккурдан йироқ бир саналарни тортиқ қилдики, бунинг натижасида тафаккурнинг илмга бўлган ҳудудларининг ўрнини, том маънода ғийбат касаллиги эгаллади. Ва энг ачинарлиси шундаки, бундай руҳий касаллик тури миллатимиз қонига тобора сингиб бормоқда. Бундай касаллик миллатимизга қаердан келди ва нима учун? Агар биз ўз назарияларимиз билан асослайдиган бўлсак, унинг замиридаги асос тафаккур танқислиги ва маърифат ила маданиятнинг сустлигидир. Ғийбат шундай касаллик туридирки, у илмсиз ва бекорчини излайди. Агар англаган бўлсангиз илмли инсон, тафаккурини гўзал одатлар ила бойитади, бундай касалликка чалинмайди. Ғийбат нима ўзи? Ғийбат бу инсонларни бир - бирига қарши қўядиган, улар орасига нифоқ соладиган ва ҳатто ҳалок этадиган ўта кучли қуролдир. Ғийбат касаллиги ўз ичига кўролмаслик, айёрлик, манманлик, ҳасад ва манқуртлик каби руҳий касалликлар орқали ўз кучига эгадир. Халқимизда "бўлса кўролмайди, бўлмаса беролмайди" деган нақл бор. Ушбу нақлнинг нақадар тўғри ва теран айтилганини бугун ҳаётимиз исботида кўриб турибмиз. Биз нега ғийбат қиламиз. Орамизда шундай инсонлар борки, улар аввал давлатни, кейин жамиятни, маҳаллани, қўни - қўшнисини ғийбат қилади. Ғийбат унинг учун озуқа манбаига айланиб қолган. Ғийбат шу қадар оғир касаллик турики, инсон барчани ғийбат қилиб бўлса, охири оиласини қолаверса, ўзини ҳам ғийбат қилишдан тоймайди. Ҳозирги давримизда қаерга қараманг, ғийбатни гувоҳи бўласиз. Чойхона дейсизми, дўстлар давраси

дейсизми, тўйхонами, оила давраси ва ҳатто азада бўлсангиз ҳам ғийбат ўша ерда ҳозир нозир. Нима бизнинг ғийбатдан ўзга ҳунаримиз қолмадимиз? Масаланинг ачинарли томони шундаки, авваллари бундай руҳий касаллик тури аёлларда кўпроқ учради ва эндиликда эркаларимиз ҳам аёллардан қолишмаган ҳолда, ғийбатга кўмилиб кетмоқда. Кўчадан фалончини қизи ўтса, йўл бошида ўтирган кап - катта эркалар унинг ортидан ғийбатни бошлайдилар. – “Эшитдингми, анави фалончини ўғли билан дон олишиб юраркан.”

Биродар сиз бировни ғийбат қилишдан олдин ўйлаб кўрдингизми, сизни ҳам ғийбат қилмасларми? Бировни ортидан гапириш, унинг шаънига доғ тушириш сизга нима беради. Ундан кўра ҳув ана анҳор бўйида бир тўп ёшлар сигарет чекиб ичиб ўтиришибди. Сиз одоб ва ахлоқ юзасидан уларнинг олдига бориб чекиш ва ичмоқликнинг кони зарар эканлигини, илм эса инсонни саодатга бошлашни насиҳат қилмайсизми? Ёки ўз даврангизда чиройли суҳбат уюштирсангиз, эзгуликлар ҳақида гапирсангиз, бебаҳо одатларимизни тўлқинланиб сўзласангиз, даврадагиларни саодатга бошласангиз, маҳалла куйга, жамиятга бўлган ҳурматингиз ва оқилона ҳимматингизни билдирмайдими? Одамлар ёлғизликдан қочадилар. Улар давраларга кўпроқ интиладилар. Нега? Чунки у ерда ғийбат бор. Кейинги пайтларда одамларда ғийбатга бўлган эҳтиёж кучайиб бормоқда. Кимдир қўшнисини, кимдир дўстини ва кимдир кимнингдир хотинини ғийбат қилади. Инсонда руҳият шу даражада ўз функциясини йўқотдики, у салбий туйғулардан роҳат топадиган бўлди. Ғийбат бу қўни - қўшнидан, ёру биродардан айирувчи кучдир. Биз ғийбат атрофида ўралашиб умримизни беҳуда ўрқазмаяпмизми? Ғийбат бизнинг олтинга тенг лаҳзаларимизни ўғирламаяптими?

Ёввойи ҳайвонлар характериға назар ташласак, улар аввал емиш излайдилар, қоринларини тўқлаб соя салқинда дам оладилар ва зерикканларидан бир - бирларини шохлайдилар, жанг қиладилар. Инсонда ҳам шу ҳислат бор. У аввал даврада ўтиради, ейди, ичади ва секин - аста ғийбат бошланади, охири эса маълум. Ғийбат бу том маънодаги манқуртликнинг ўзгинасидир. Тил, хохлаймизми, хохламаймизми гапириш истайди. Агар тафаккурда илм бўлмаса, у қақраб ётган чўлни эслатса, бечора тил нима қилсин. Унга сўзлашга ғийбатдан ўзга нима бор? Назаримда халқимиз орасидаги бир нақл эскирган кўринади. “Бошингга келган балони, тилингдан кўр”- дейдилар. Бу балони тилдан эмас, тафаккурнинг ожизлигидан кўрмоқ керак эмасми? Тил оддий физиологик бажарувчи функция, холос. Уни қаёққа бурсангиз, ўша томонга кетади. Тил, тафаккур ёки ақл нима деса шунга бўйсинади. Бошимизга келган балони айбини нега тилдан излашимиз керак. Сиз тафаккурни тарбиялаб, одоб юзасидан тилни

ишга солингчи, ким сизга нима дейди? Энди хулосага келадиган бўлсак, айнан ғийбат касаллиги синдроми бизнинг дилимизни тўлалигича ўз измига олган. Бунинг ягона сабаби, бизнинг илм ва тафаккурдан йироқлашиб кетганимиздир. Биз онгимиз, тафаккуримизга керакли бўлган илоҳий озуқа сандиқчаларини айнан ғийбат билан тўлдириб ташляемизки, бу ҳолат миллатимиздаги манқуртлик касалини ривожлантирмоқда. Инсон бу дунёга нима учун келади? Унинг бажарадиган функциялари нималардан иборат. Ақлан фикр қилган одам тафаккурини илмга қаратади ва илоҳий илм сарҳадларига кенг йўл очади. Хоҳлаймизми, хоҳламаймизми дунёвий яшаш шароитида ғийбат барибир мавжуд ва бундай руҳий касаллик туридан инсоннинг бутунлай холи яшашга имконияти йўқ. Бундай руҳий касалликдан қўтилишнинг ягона йўли бу, тафаккур тарбиясидир. Токи биз тафаккур тарбияси орқали кўнгилни ушбу хасталиқдан покламас эканмиз, жамият бундай чиркин одатдан қутилолмайди. Ғийбат бу инсониятнинг ўзига қарши қаратилган хавfli қурооллардан биридир. Биз миллатимизни бундай касаллик туридан озод қилишимиз ва соғлом турмуш тарзини яратишимиз учун эътиборни кўпроқ тафаккур тарбиясига қаратишимиз лозим бўлади. Одамлар ғийбатни касбга айлантирмоқдалар. Ҳамма касалликларни даволаб бўлгани сингари ғийбат хасталигини ҳам даволаса бўлади. Бу хавfli касалликнинг давоси тафаккурдир. Фақат тафаккургина уни даволай олади. Ёшларимизнинг илмга бўлган чанқоқлиги сусайгани учун ҳам улар орасида, айниқса олий ўқув юртларида бу ҳолат кузатилмоқда. Талабалар дарсдан ташқари қўлларига китоб эмас, ғийбат қуролини олмоқдалар. Бу ҳолатда қандай буюк келажак қураимиз. Ғийбат касаллиги оиладан бошланади. Оилавий муҳит бундай касаллик турини келтириб чиқаради. Бизда миллий урф -одатлар турлари кўп, масалан каштачилик, пахсачилик, хуллас жамоа бўлиб ишлайдиган меҳнатнинг турлари кўпдир. Биз айтаётган ғийбат асосан давраларда, қўл ишдаю тил ғийбатда бўлиб қолаётир. Меҳнат бу ҳалолликдир. Қўлни ҳалол ишга бошқариб тилимизни ғийбатга бурсак, топган нонимиз ҳалол ҳисобланадими? Ғийбат нафақат ёмон ҳислат, балки физик ҳолатда жиддий тиббий касалликларга олиб келувчи восита ҳамдир. Сиз ғийбат қилдим бўлди деб ўйлайсиз, лекин ўша ғийбатингизнинг салбий қуввати вужудингизда қолади ва сизни касалликка чалинтиради. Яхши сўзлаган инсон, ғийбатдан йироқлар ўз ширин сўзлари билан соғликларини мустаҳкамлаб борадилар. Нега биз давраларда буюк тарихимиз ҳақида гапирмаймиз, нега одамийликнинг гўзал ҳислатлари ҳақида гапирмаймиз. Фалончи тўй қилибди, тўйида ароқ қўйилмабди, писмадончи икки қаватли уй қураётганмиш, фалончи қизини фалончига бермоқчи экан, писмадончи билан қочиб кетибди, писмадончи эридан айрилибди, фалончи яна уйланаётганмиш... Бундай маънисиз гаплар сизга нима беради? Ундан кўра касбингизни ривожлантирмайсизми, ўз йўналишингизда кашфиётлар устида бош қотирмайсизми? Қўлингиз меҳнатда бўлган пайтда фикрни илмга қаратмайсизми? Ғийбат оиладан бошланади. Оилада тарбия бўлмаса ғийбат

шундан бошланади. Оилада илм бўлмаса, тафаккур бўлмаса ғийбат шундан бошланади. Чунки гаплашадиган бошқа гап йўқда. Оилада бекорчилик бўлса, ғийбат шундан бошланади. Тарбияни оиладан бошламоқ лозим. Оилада фарзанд бўш қолдими, унинг қўлига ё кетмон, ё китоб тутқазинг. Меҳнат танани чиниқтирса, илм тафаккурни юксалтиради. Оилада шундай бир муҳитни яратиш керакки, токи ғийбатга ўрин қолмасин. Мабодо, оилада ғийбат уруғи сочилса, бу ҳолат аввал фарзандларга ўтади, кейин маҳаллага ва аста - секинлик билан у бутун жамият касаллигига айланади. Ғийбатдан қочмоқ керак, ғийбатдан йироқ юрмоқ керак. Ғийбатни тафаккурдан бутунлай улоқтириб ташламоқ керак. Миллатнинг илмга бўлган иштиёқини уйғотиш ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиз бўлсин. Биз мукамал миллатмиз. Биз ўзлимизни майда ғийбатларга олдириб қўймаслигимиз керак. Бизга ғийбат эмас, илм ва юксак тафаккур ярашади. Ўзимизга ярашадиган ишни қилайлик. Ўзимизга муносиб бўлган йўлни танлайлик. Ғийбат бизнинг миллатимизга хос юмуш эмас. Биз ғийбатни ўзимизники қилиб олмаслигимиз керак. Ғийбат илмсизликни билдиради. Ўзида бўлмагани учун ўзгани кўролмайди. Сиз илмга тафаккурга интилинг, ҳавас билан яшанг. Ҳаётдан завқ олиб яшанг. Англашингиз лозимки, ғийбат сизни ҳам руҳиятингизни, ҳам вужудингизни сездирмаган ҳолда емиради. Ғийбатсиз яшаш бу мусаффо ҳаётдир. Бир инсондан сўрашибди, - "сенинг хотининг қандай аёл?" Саволга жавобан у, - "кечирасан мен хотиним ҳақида ҳеч нарса айтмайман," - дебди. Бир вақти келиб ўша инсон хотинидан ажрашиб кетса, ҳалиги савол берган одам яна, - "мана ажрашиб кетдинг, энди айтарсан хотинингни қандай инсонлигини," - деса у, - "мен билмайман, уни қанақалигини бориб эридан сўра" - деган экан. Камгаплик ва теран тафаккур бу чин инсонийлик белгисидир. Одамлар гарчи илмлари бўлмасада, тайинсиз гаплар билан ғийбат шодаларини териб ўзларини ақлли кўрсатадилар. Инсон ўзлигини ғийбат билан эмас, илм билан кўрсатсин. Тафаккурда илм бўлмасаю, тилни қўйиб юборсангиз, ундан кўп гаплар, асосан ғийбат гаплар чиқиб кетади. Инсон тилни эмас, тафаккурни тарбиялаши керак. Тил агар тафаккур ихтиёрига ўтса, ундан ҳеч қачон ёмон сўзлар чиқмайди. Ғийбат миллатимизни тарк этсин, бизни ғийбатга қарши курашмоқ пайтимиз келди. Фақат ғийбатга қарши кураш бошлаганимизни ҳам ғийбатга айлантириб юбормайлик. Унга қарши ички туғён билан тафаккурни илмга тўлдириб, тилимизни тишлашни одат қилсак бўлгани.

So'fiy - tabib shayx Nursafardiy

**Til va Dil yoxud...
g'iybat san'ati kimga
kerak?...**

"Cho'p"ni o'ziga qurol qilganlar, unutmashlarki "cho'p"ning ikki uchi borligini.

Agar inson ruhiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda ham xuddi vujudda bo'lgani kabi nafsning bir necha turlarini ko'ramiz. Ruhiyat bu insonni ma'lum yo'lga boshqaruvchi asosiy kuchdir. Hamma gap uning qanday shakllanganida va qaysi yo'lni tanlaganidadir. Ilohiy yo'l tafakkur va ko'ngil pokligi ila tanlansa, dunyoviy yo'lning tafakkurdan tashqari nafsiy xurujlari ham mavjudki, u insonni hamisha fikran chalg'itib turadi. Nafs bu insonning vujudiga, ruhan sog'ligiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi kuchli vositadir. Nafs zamirida ham ruhan va ham vujudan kasalliklar turi mavjudki, uni o'z vaqtida davolamasa, bunday xurujlar insonni har tomonlama xarob etishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlashni lozim topdimki, insonda fiziologik kasallikdan ko'ra, ruhiy kasalliklar turi nafaqat insonning o'zi, balki uning atrofidagi odamlar uchun ham o'ta havflidir. Ana shunday kasalliklarning biri, nihoyatda achinarli bo'lsa ham aytishga majburmizki, bu o'zligimizga tekkan g'iybat sindromi kasalligidir. Agar biz tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, moziyda o'tgan ajdodlarimizning naqadar mehr - oqibatli, oqil va donishmand bo'lganini guvohi bo'lamiz. Ular haqida to'lqinlanib gapiramiz va faxr iftixor tuyg'usini sezamiz. Keyingi asr davri biz uchun anchagina ilmsizlik va tafakkurdan yiroq bir sanalarni tortiq qildiki, buning natijasida tafakkurning ilimga bo'lgan hududlarining o'rnini, tom ma'noda g'iybat kasalligi egalladi. Va eng achinarlisi shundaki, bunday ruhiy kasallik turi millatimiz qoniga tobora singib bormoqda. Bunday kasallik millatimizga qaerdan keldi va nima uchun? Agar biz o'z nazariyalarimiz bilan asoslaydigan bo'lsak, uning zamiridagi asos tafakkur tanqisligi va ma'rifat ila madaniyatning sustligidir. G'iybat shunday kasallik turidirki, u ilmsiz va bekorchini izlaydi. Agar anglagan bo'lsangiz ilmli inson, tafakkurini go'zal odatlar ila boyitadi, bunday kasallikka chalinmaydi. G'iybat nima o'zi? G'iybat bu insonlarni bir - biriga qarshi qo'yadigan, ular orasiga nifoq soladigan va hatto halok etadigan o'ta kuchli quroldir. G'iybat kasalligi o'z ichiga ko'rolmaslik, ayyorlik, manmanlik, hasad va manqurtlik kabi ruhiy kasalliklar orqali o'z kuchiga egadir. Xalqimizda" bo'lsa ko'rolmaydi, bo'lmasa berolmaydi" degan naql bor. Ushbu naqlning naqadar to'g'ri va teran aytilganini bugun hayotimiz isbotida ko'rib turibmiz. Biz nega g'iybat qilamiz. Oramizda shunday insonlar borki, ular avval davlatni, keyin jamiyatni, mahallani, qo'ni - qo'shnisini g'iybat qiladi. G'iybat uning uchun ozuqa manbaiga aylanib qolgan. G'iybat shu qadar og'ir kasallik to'riqi, inson barchani g'iybat qilib bo'lsa, oxiri oilasini qolaversa, o'zini ham g'iybat qilishdan toymaydi. Hozirgi davrimizda qaerga qaramang, g'iybatni guvohi bo'lasiz. Choyxona deysizmi, do'stlar davrasi deysizmi, to'yxonami, oila davrasi va hatto azada bo'lsangiz ham g'iybat o'sha erda hoziru nozir. Nima bizning g'iybatdan o'zga hunarimiz qolmadimi? Masalaning achinarli tomoni shundaki, avvallari bunday ruhiy kasallik turi ayollarda ko'proq uchrardi va endilikda erkaklarimiz ham ayollardan qolishmagan holda, g'iybatga ko'milib ketmoqda. Ko'chadan falonchini qizi

o'tsa, yo'l boshida o'tirgan kap - katta erkaklar uning ortidan g'iybatni boshlaydilar. – "Eshitdingmi, anavi falonchini o'g'li bilan don olishib yurarkan."

Birodar siz birovni g'iybat qilishdan oldin o'ylab ko'rdingizmi, sizni ham g'iybat qilmaslarmi? Birovni ortidan gapirish, uning sha'niga dog' tushirish sizga nima beradi. Undan ko'ra huv ana anhor bo'yida bir to'p yoshlar sigaret chekib ichib o'tirishibdi. Siz odob va axloq yuzasidan ularning oldiga borib chekish va ichmoqlikning qoni zarar ekanligini, ilm esa insonni saodatga boshlashini nasihat qilmaysizmi? Yoki o'z davrangizda chiroyli suhbat uyushtirsangiz, ezguliklar haqida gapirsangiz, bebaho odatlarimizni to'lqinlanib so'zlasangiz, davradagilarni saodatga boshlasangiz, mahalla kuyga, jamiyatga bo'lgan hurmatingiz va oqilona himmatingizni bildirmaydimi? Odamlar yolg'izlikdan qochadilar. Ular davralarga ko'proq intiladilar. Nega? Chunki u erda g'iybat bor. Keyingi paytlarda odamlarda g'iybatga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Kimdir qo'shnisini, kimdir do'stini va kimdir kimningdir xotinini g'iybat qiladi. Insonda ruhiyat shu darajada o'z funktsiyasini yo'qotdiki, u salbiy tuyg'ulardan rohat topadigan bo'ldi. G'iybat bu qo'ni - qo'shnidan, yoru birodardan ayiruvchi kuchdir. Biz g'iybat atrofida o'ralashib umrimizni behuda o'rqazmayapmizmi? G'iybat bizning oltinga teng lahzalarimizni o'g'irlamayaptimi?

Yovvoyi hayvonlar xarakteriga nazar tashlasak, ular avval emish izlaydilar, qorinlarini to'qlab soya salqinda dam oladilar va zerikkanlaridan bir - birlarini shoxlaydilar, jang qiladilar. Insonda ham shu hislat bor. U avval davrada o'tiradi, eydi, ichadi va sekin - asta g'iybat boshlanadi, oxiri esa ma'lum. G'iybat bu tom ma'nodagi manqurtlikning o'zginasidir. Til, xoxlaymizmi, xoxlamaymizmi gapirish istaydi. Agar tafakkurda ilm bo'lmasa, u qaqrab yotgan cho'lni eslatsa, bechora til nima qilsin. Unga so'zlashga g'iybatdan o'zga nima bor? Nazarimda xalqimiz orasidagi bir naql eskirgan ko'rinadi. "Boshingga kelgan baloni, tilingdan ko'r"- deydi. Bu baloni tildan emas, tafakkurning ojizligidan ko'rmoq kerak emasmi? Til oddiy fiziologik bajaruvchi funktsiya, xolos. Uni qayoqqa bursangiz, o'sha tomonga ketadi. Til, tafakkur yoki aql nima desa shunga bo'ysinadi. Boshimizga kelgan baloni aybini nega tildan izlashimiz kerak. Siz tafakkurni tarbiyalab, odob yuzasidan tilni ishga solingchi, kim sizga nima deydi? Endi xulosaga keladigan bo'lsak, aynan g'iybat kasalligi sindromi bizning dilimizni to'laligicha o'z izmiga olgan. Buning yagona sababi, bizning ilm va tafakkurdan yiroqlashib ketganimizdir. Biz ongimiz, tafakkurimizga kerakli bo'lgan ilohiy ozuqa sandiqchalarini aynan g'iybat bilan to'ldirib tashlayamizki, bu holat millatimizdagi manqurtlik kasalini rivojlantirmoqda. Inson bu dunyoga nima uchun keladi? Uning bajaradigan funktsiyalari nimalardan iborat. Aqlan fikr qilgan odam tafakkurini ilmga qaratadi va ilohiy ilm sarhadlariga keng yo'l ochadi. Xohlaymizmi, xohlamaymizmi dunyoviy yashash sharoitida g'iybat baribir mavjud va bunday ruhiy kasallik turidan

insonning butunlay holi yashashga imkoniyati yo'q. Bunday ruhiy kasallikdan qo'tilishning yagona yo'li bu, tafakkur tarbiyasidir. Toki biz tafakkur tarbiyasi orqali ko'ngilni ushbu xastalikdan poklamas ekanmiz, jamiyat bunday chirkin odatdan qutilolmaydi. G'iybat bu insoniyatning o'ziga qarshi qaratilgan xavfli qurollardan biridir. Biz millatimizni bunday kasallik turidan ozod qilishimiz va sog'lom turmush tarzini yaratishimiz uchun e'tiborni ko'proq tafakkur tarbiyasiga qaratishimiz lozim bo'ladi. Odamlar g'iybatni kasbga aylantirmoqdalar. Hamma kasalliklarni davolab bo'lgani singari g'iybat xastaligini ham davolasa bo'ladi. Bu xavfli kasallikning davosi tafakkurdir. Faqat tafakkurgina uni davolay oladi. Yoshlarimizning ilmga bo'lgan chanqoqligi susaygani uchun ham ular orasida, ayniqsa oliy o'quv yurtlarida bu holat kuzatilmoqda. Talabalar darsdan tashqari qo'llariga kitob emas, g'iybat qurolini olmoqdalar. Bu holatda qanday buyuk kelajak quramiz. G'iybat kasalligi oiladan boshlanadi. Oilaviy muhit bunday kasallik turini keltirib chiqaradi. Bizda milliy urf - odatlar turlari ko'p, masalan kashtachilik, paxsachilik, xullas jamoa bo'lib ishlaydigan mehnatning turlari ko'pdir. Biz aytayotgan g'iybat asosan davralarda, qo'l ishdayu til g'iybatda bo'lib qolayotir. Mehnat bu halollikdir. Qo'lni halol ishga boshqarib tilimizni g'iybatga bo'rsak, topgan nonimiz halol xisoblanadimi? G'iybat nafaqat yomon hislat, balki fizik holatda jiddiy tibbiy kasalliklarga olib keluvchi vosita hamdir. Siz g'iybat qildim bo'ldi deb o'ylaysiz, lekin o'sha g'iybatingizning salbiy quvvati vujudingizda qoladi va sizni kasallikka chalintiradi. Yaxshi so'zlagan inson, g'iybatdan yiroqlar o'z shirin so'zlari bilan sog'liklarini mustahkamlab boradilar. Nega biz davralarda buyuk tariximiz haqida gapirmaymiz, nega odamiylikning go'zal hislatlari haqida gapirmaymiz. Falonchi to'y qilibdi, to'yida aroq qo'yilmabdi, pismadonchi ikki qavatli uy qurayotganmish, falonchi qizini falonchiga bermoqchi ekan, pismadonchi bilan qochib ketibdi, pismadonchi eridan ayrilibdi, falonchi yana uylanayotganmish... Bunday ma'nisiz gaplar sizga nima beradi? Undan ko'ra kasbingizni rivojlantirmaysizmi, o'z yo'nalishingizda kashfiyotlar ustida bosh qotirmaysizmi? Qo'lingiz mehnatda bo'lgan paytda fikrni ilmga qaratmaysizmi? G'iybat oiladan boshlanadi. Oilada tarbiya bo'lmasa g'iybat shundan boshlanadi. Oilada ilm bo'lmasa, tafakkur bo'lmasa g'iybat shundan boshlanadi. Chunki gaplashadigan boshqa gap yo'qda. Oilada bekorchilik bo'lsa, g'iybat shundan boshlanadi. Tarbiyani oiladan boshlamoq lozim. Oilada farzand bo'sh qoldimi, uning qo'lga yo ketmon, yo kitob tutqazing. Mehnat tanani chiniqtirsa, ilm tafakkurni yuksaltiradi. Oilada shunday bir muhitni yaratish kerakki, toki g'iybatga o'rin qolmasin. Mabodo, oilada g'iybat urug'i sochilsa, bu holat avval farzandlarga o'tadi, keyin mahallaga va asta - sekinlik bilan u butun jamiyat kasalligiga aylanadi. G'iybatdan qochmoq kerak, g'iybatdan yiroq yurmoq kerak. G'iybatni tafakkurdan butunlay uloqtirib tashlamoq kerak. Millatning ilmga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish har birimizning muqaddas burchimiz bo'lsin. Biz mukammal millatmiz. Biz o'zligimizni mayda g'iybatlarga oldirib qo'ymasligimiz kerak. Bizga g'iybat emas, ilm va yuksak tafakkur yarashadi. O'zimizga yarashadigan ishni qilaylik. O'zimizga munosib bo'lgan yo'lni tanlaylik. G'iybat bizning millatimizga xos yumush emas. Biz g'iybatni o'zimizniki qilib

olmasligimiz kerak. G'iybat ilmsizlikni bildiradi. O'zida bo'lmagani uchun o'zgani ko'rolmaydi. Siz ilmga tafakkurga intiling, havas bilan yashang. Hayotdan zavq olib yashang. Anglashingiz lozimki, g'iybat sizni ham ruhiyatingizni, ham vujudingizni sezdirilmagan holda emiradi. G'iybatsiz yashash bu musaffo hayotdir. Bir insondan so'rashibdi, - "sening xotining qanday ayol?" Savolga javoban u, - "kechirasan men xotim haqida hech narsa aytmayman," - debdi. Bir vaqti kelib o'sha inson xotinidan ajrashib ketsa, haligi savol bergan odam yana, - "mana ajrashib ketding, endi aytarsan xotiningni qanday insonligini," - desa u, - "men bilmayman, uni qanaqaligini borib eridan so'ra" - degan ekan. Kamgaplik va teran tafakkur bu chin insoniylik belgisidir. Odamlar garchi ilmlari bo'lmasada, tayinsiz gaplar bilan g'iybat shodalarini terib o'zlarini aqlli ko'rsatadilar. Inson o'zligini g'iybat bilan emas, ilm bilan ko'rsatsin. Tafakkurda ilm bo'lmasayu, tilni qo'yib yuborsangiz, undan ko'p gaplar, asosan g'iybat gaplar chiqib ketadi. Inson tilni emas, tafakkurni tarbiyalashi kerak. Til agar tafakkur ixtiyoriga o'tsa, undan hech qachon yomon so'zlar chiqmaydi. G'iybat millatimizni tark etsin, bizni g'iybatga qarshi kurashmoq paytimiz keldi. Faqat g'iybatga qarshi kurash boshlaganimizni ham g'iybatga aylantirib yubormaylik. Unga qarshi ichki tug'yon bilan tafakkurni ilmga to'ldirib, tilimizni tishlashni odat qilsak bo'lgani.

www.nursafardiyasufism.uz